


## Farg'ona viloyati bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarni o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (dastlabki) (Qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subektlarisiz)

2019-yil



Viloyatda sanoat korxonalarida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 448,9 ming so'mga to'g'ri keldi va 2018 yilning xuddi shu davri bilan taqqoslaganda 16,7 % ga ,qurilish korxonalarida 2 196,4 ming so'm (16,0 % ga), savdo sohasida esa 2 305,8 ming so'm (6,0 % ga) ,tashish va saqlash sohasida 2 286,6 ming so'm (21,2% ga), axborot va aloqa sohasida i 2 230,3 ming so'm (17,2 % ga), moliya va sugurta faoliyati sohasida esa 3 672,4,1 ming so'm (30,3 % ga ) oshirilgani ma'lum boldi.

Ta'lim sohasida  
(Qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subektlarisiz)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1 694,4 ming so'mni tashkil qildi va 2018 yilning mos davri bilan taqqoslaganda 30,3 % ga oshdi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasidagi  
(Qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subektlarisiz)

O'tacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1 444,1 ming so'mni tashkil qildi va 2018 yilning mos davri bilan taqqoslaganda 31,3 % ga oshdi.





Umuman, barcha turdagi xo'jalik faoliyati uchun joriy 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida Farg'ona viloyatidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1 892,2 ming so'mni tashkil qilib (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantiruvchi, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun to'lovlar hamda jismoniy shaxslar daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlarni ham o'z ichiga oladi), 2018 yilning mos davri bilan taqqoslaganda 12,6 foizga oshdi.

# 2019 yil yanvar– dekabrda ish haqi eng yuqori bo'lgan



## SOHALAR

Bank, sug'urta,  
lizing, kredit va  
vositachilik  
**3 672,4 ming  
so'm**



Sanoat  
**2 448,9 ming so'm**



savdo  
**2 305,8 ming  
so'm**



Qurilish  
**2 196,4 ming  
so'm**



## HUDUDLAR

**Farg'ona shahri**

- **2 424,8** ming so'm

**Qo'qon shahri**

- **2 031,8** ming so'm


**Quvasoy shahri**

- **1 966,9** ming so'm

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng yuqori o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori moliya va sug'urta faoliyati 3 672,4 ming so'mni tashkil etmoqda. Keyingi o'rinlarda tashish va saklash 2 286,6 ming so'mga to'g'ri kelmoqda. Eng past ko'rsatkich ta'lim 1 694,4 ming so'mni, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish 1 444,1 ming so'mni tashkil etmoqda.

### Shahar va tumanlar kesimidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi


(2019-yil uchun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlarisiz, ming so'mda)



Shuningdek, hududlar kesimida qaraydigan bolsak, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori miqdori Farg'ona (2 424,8 ming so'm, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 12,8 foiz), Qo'qon (2 031,8 ming so'm) shahar Toshloq tumanida (1 8475,3 ming so'm) va Quvasoy (1 966,9 ming so'm) shaharlarida kuzatildi.

### O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilga nisbatan hududlar kesimida o'sish sur'ati

(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlarisiz, foizda)




**O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha**  
(yanvar-gekabr qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subektlarisiz, ming.so`mda)

	2018 yil	2019 yil
Sanoat	2099,3	2448,9
Qurilish	1893,5	2196,4
Savdo	2176,2	2305,8
Tashish va saqlash	1885,9	2286,6
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	953,9	1142,1
Moliya va sug'urta faoliyati	2638,2	3672,4
Ta'lim	1300,2	1694,4
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1099,3	1444,1
Boshqalar	1427,4	1934,6

## Ma'lumot uchun:

O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi (2019 yil sentabr oyida **634880** so'mni tashkil etgan,

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-yanvardagi 47-sonli qaroriga binoan, mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasiga o'zgartirish kiritildi va 1,2,3-razryadlari koeffitsiyentlari oshirildi) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin.



*Statistika demography va mehnat bo'limi*

*Telefon: (73) 230-87-33*